XALQ DEPUTATLARI GURLAN TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-91-171-12-171-K/23 Gurlan tuman hokimligi

Gurlan tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10354-sonli xati, Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi VI-76-190-12-0-K/23-sonli “Xorazm viloyatining 2024 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda Xorazm viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01-01--38/1687-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Gurlan tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq Gurlan tumani mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 99,3 mlrd so‘m, xarajatlari 187,9 mlrd so‘m prognoz qilinganligi hamda Respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 88,7 mlrd so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman (shahar)lar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2024-yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’i nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 668,3 mln so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida (bundan tuman budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

9. Tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari tuman Kengashini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman (shahar)lar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) 3-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari viloyat budjeti hamda tuman (shahar)lar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

benzin, dizel yonilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

11. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Choraklar yakunlari bo‘yicha ushbu qonunning 4-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra 5 foizdan ortiq miqdorga

bajarilmagan va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmagan taqdirda, viloyat hokimligi Vazirlar Mahkamasiga xarajatlarni maqbullashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish bilan birga tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan so‘rov bilan murojaat qiladi hamda mazkur taklif Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu qonunda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Bunda viloyat mahalliy budjetlarining tegishli chorakdagi mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra bajarilmagan va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli mavjud bo‘lmagan budjet daromadlari turlarining prognoz ko‘rsatkichlari aniqlashtiriladi hamda ushbu summa boshqa daromad manbalari yoki respublika budjeti hisobidan qoplanadi.

Tuman (shahar)lar hokimliklari ham viloyat hokimligiga xuddi shunday tartibda murojaat qiladi.

Quyidagilar tegishlicha tuman budjetidan moliyalashtiriladi:

Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari.

12. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Davlatov) tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Ollamov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Urazbayev) va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Urazbayev)ga O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda ushbu soliqlarning o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Urazbayev), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (Z.Allaberganov) 2024-yil uchun yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

15. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Urazbayev) tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (X.Urazmetov) tuman soliq inspeksiyasi (A.Urazbayev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

17. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (M.Bekchanov), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlar hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Raximov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Urazbayev), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Ollamov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarning 2024-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

19. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi (D.Abdukarimov) tuman hokimligi bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarning budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

20. Tuman irrigatsiya bo‘limi (M.Madyarov) va tuman soliq inspeksiyasi (A.Urazbayev) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur

iste‘mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning to‘liq hisoblanishi hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olinishini ta’minlasin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

21. Tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Tadjiyev), yo‘l harakati xavfsizligi guruhi (M.Yusupov), tuman adliya bo‘limi (N.Raximov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

22. Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiya va xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatish va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etishi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

23. Tuman hokimligi:

Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari tuman Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash

maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

24. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Davlatov, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli bo‘lim boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

25. Tuman hokimligi qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

26. Mazkur qaror “Gurlan hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

27. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

28. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Xaniyazov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **U.Jumaniyazov**

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-91-171-12-171-K/23-son qaroriga
1-ilova

Gurlan tumanining tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**99 269 000,0**
1	Foyda solig‘i	
2	Aylanmadan olinadigan soliq	10 918 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari)	29 241 000,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 547 000,0
5	Aksiz solig‘i, jami	13 747 000,0
	shu jumladan: *- benzinni, dizel yonilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i*	13 747 000,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 518 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	9 103 000,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	12 910 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 402 000,0
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	40 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6 734 000,0
12	Qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari)	
13	Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar	
14	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	109 000,0
15	Davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar	
16	O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga tegishli ravishda ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	
17	Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar va g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan tashqari)	
18	Boshqa tushumlar	

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-91-171-12-171-K/23-son qaroriga
2-ilova

Gurlan tumani mahalliy budjetining 2024-yildagi asosiy ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	Xarajatlar - jami	**187 975 216**
1.	**IJTIMOIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASHGA XARAJATLAR - JAMI**	**120 279 424**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	31 589 057
	- maktabgacha ta’lim	16 761 462
	- umumiy ta’lim	14 827 595
1.2	Sog‘liqni saqlash	82 222 145
1.3	Madaniyat va ommaviy axborot vositalari	2 286 568
1.4	Sport	4 062 945
1.5	Fan	
1.6	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	
1.7	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	18 400
1.8	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	100 309
2.	**IQTISODIYOTGA XARAJATLAR**	**22 627 207**
	shu jumladan:	
2.1	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000
2.2	Obodonlashtirish	11 241 118
2.3	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	3 042 338
2.4	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	386 368
2.5	Veterinariya qo‘mitasi	2 483 683
2.6	**Boshqa**	
2.7	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	1 473 700
3.	**Davlat markaziy hokimiyati organlari**	**0**
4.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**23 919 095**
5.	**FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINI SAQLASH**	**0**
6.	**ZAXIRA JAMG‘ARMASI**	**1 668 257**
7.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**19 481 233**
7.1	*Tashabbusli budjet tadbirlari*	*19 481 233*
8.	**Boshqa xarajatlar**	**0**

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-91-171-12-171-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Gurlan tumani mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

Daromad turlari		**Foiz hisobida**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	100
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	50
3	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	100
4	Benzinni, dizel yonilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	100
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	100
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	100
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	100
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	100
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	100
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, *bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno*	100
11	Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar	100

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-91-171-12-171-K/23-son qaroriga
4-ilova

Gurlan tumani mahalliy budjetlarning 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
Gurlan tumani	99 140 000,0	187 975 216,0

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-91-171-12-171-K/23-son qaroriga
5-ilova

Tumanlar mahalliy budjetining 2024-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	***shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratilgan mablaglar****
Gurlan tumani	88 835 216,0	26 627 967,0

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-91-171-12-171-K/23-son qaroriga
6-ilova

Gurlan tumani mahalliy budjetida 2024-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Miqdor
1	Gurlan tumani	882 000,0